

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING AHAMIYATI

Gulnoza Xasanova Inamjanovna,
Toshkent shahar Bektemir tumanidagi
290-maktabning 1-toifa boshlang‘ich sinflar
o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqoladagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda bolalar adabiyyotining tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, boshlang‘ich sinflar darsliklari misolida mulohazalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *didaktika, metodika, xarakter, uslubiyat, ijtimoiy-madaniy, kompetensiya, badiiyat, nazm, nasr, obraz, lirik, epiq, pedagogika, tamaddun.*

Abstract: *In this article, the speech of students in general secondary educational institutions is analyzed in the textbook example of the comments on the educational value of children’s literature.*

Key words: *didactic, methodology, character, methodology, socio-cultural, competence, art, poetry, prose, image, lyric, epic, pedagogy, civilization.*

Абстракт: *в данной статье речь учащихся общеобразовательных учреждений анализируется на хрестоматийном примере комментариев о воспитательной ценности детской литературы.*

Ключевые слова: *дидактический, методология, персонаж, методология, социокультурная, компетентность, искусство, поэзия, проза, образ, лирика, эпос, педагогика, цивилизация.*

Nutqning shakllanishida, albatta, tashqi muhitning, bola dunyoqarashining o‘rni katta. Bola bilan qanchalik ko‘p muloqot qilinsa, uning xatti-harakatlariga e’tibor qaratilsa, uning atrofdagilar bilan munosabati shunchalik yaxshilanadi va muloqotga kirishishi ham oson bo‘ladi. Nutq jarayonida bolaning o‘ziga bo’lgan ishonchi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihat, ayniqsa, talaffuzida, ya’ni bolaning talaffuzida ham muhim hisoblanadi.

“Umumiyl o‘rta ta’limda ona tili o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi imlo va uslubiy savodxonligi shakllangan, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g’ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy firklay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan, muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish ekan, bunda o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifa kundalik turmush, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayotga oid turli mavzular doirasida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini adabiy til me’yorlari asosida rivojlantirishga qaratilgan nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat”.

[Diktantlar to’plami. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. T-2018. G. Ziyodullayeva. 3-bet.] Nutq o‘stirishda, ayniqsa, badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyyotining o‘rni katta. Bolalar adabiyotida bolalar ruhiyatiga xos, sodda, tushunarli, yarim hazil mazmunidagi matnning ifodasi ularning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, binobarin,

nutqining ham ravon bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi.

Chunki bola xotirasining shakllanishida ham badiiy adabiyot mutolaasi muhim. Bolalar adabiyotida o‘quvchilarni o‘ziga jalg etadigan yana bir jihat shundan iboratki, ayniqsa, bolalar she’riyatida so‘z o‘yinlariga, so‘z takrorlari, so‘zlarning shakldoshlik, ya’ni omonimlik xususiyatlariga keng o‘rin beriladi. Bu jihat o‘z-o‘zidan bolalar xotirasining rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Masalan: 3-sinflar uchun M. Umarova, X. Xamrakulov va K. Tojiboyeva hammuallifligidagi 2019- yilda nashr etilgan “O‘qish kitobi” darsligi misolida kuzatadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan mazkur darslikda ham bolalar adabiyotidan ham nasriy, ham she’riy matnlardan umumli foydalanilgan. Bunda, albatta, bolaning yoshi va dunyoqarashi hisobga olingan. O‘z ish tajribam davomida mazkur darslikdagi ko‘plab didaktik materiallarni o‘ziga xos, mavzuning oddiy yoki murakkabligidan kelib chiqib, turli metodikalar asosida tushuntirishga harakat qilaman.

Darslikda, jumladan, iste’dodli bolalar shoirlaridan Dilshod Rajab, Anvar Obidjon, Kavrар Turdiyeva, Tolib Yo‘ldosh, Po‘lat Mo‘min, Ulug’bek Hamdam kabi taniqli ijodkorlarning ham bolalari adabiyoti bilan bog’liq she’rlari o‘rin olgan Bu she’rlar tilining lisoniy soddaligi, samimiyyati, qofiyalarning ohangdoshligi, mazmunning tarbiyaviy ahamiyati bilan ham xarakterlidir.

Masalan: Iste’dodli yozuvchi va shoир, bugungi davr adabiyotining eng peshqadam ijodkorlaridan biri Ulug’bek Hamdamning “Vatan desam...” she’rini olaylik:

Vatan desam, ko‘zimga
Qatra-qatra yosh kelar.
Yosh ichida miltirab,
Buyuk bir bardosh kelar

[O‘qish kitobi. M. Umarova va boshqalar. 3 –sinf uchun darslik T-2019. B-8]

Bir qarashda juda oddiy, sodda satrlar. Ammo Vatan tushunchasining sodda tasviri orqali shoир o‘quvchi qalbida unga bo‘lgan muhabbat, e’zoz va hurmat ruhini uyg’otadi va she’r davomida shu vatanda tug’ilgan buyuk siymolarni ham yodga oladi va bu orqali bobolar oldidagi ulug’ bir mas’ullikni ham eslatadi:

Vatan desam, tilimga
Temur-u Bobur kelar
Moziylarni uyg’otib
Do‘mbira, tanbur kelar.

[Shu manba, 8-bet.]

yoki O‘zbekiston Xalq shoирi Anvar Obidjonning quyidagi she’rini olaylik:

Ey o‘quvchi, bilki, har so‘z,

Nondek aziz, nondek uvol.
Til boylogin bir bog’ desak,
Har bitta so‘z-bitta nihol
[Shu manba, 27-bet.]

Yuqoridagi she’rda ham ona tiliga bo‘lgan ehtiromni shoir obrazli tarzda sodda va samimiyl satrlarda ifodalaydi.

Shuningdek, mazkur darslikda O‘tkir Hoshimov, Go‘zal Begim va boshqa ko‘plab yozuvchilarining hikoyalaridan, ertak va rivoyatlardan ham unumli foydalanilgan.

Lirik va epik asarlarning mutolaasi davomida, ularni tahlil qilish jarayonida, shuningdek, ularni yod olish mobaynida, shubhasiz, o‘quvchilarining nutqida yangi-yangi tushuncha, so‘zlar kirib keladi. O‘quvchilar lug’at yordamida yangi so‘zlar ma’nosini tushunib oladilar va bularning hammasi ular nutqining rivojlanishida katta hissa qo‘sadi.

Bolalar adabiyotining yana bir muhim jihat shundaki, bu adabiyot orqali bola ezgulikni taniydi, mehr-muhabbat hissini tuyadi.

“Til insonning jisman eng kichik, ammo mas’uliyatli va vazifasi jihatidan katta e’tiborga loyiq a’zosidir. Uni faqat xayrli, yaxshi so‘zlar uchun ishlatish va yomon, dilozor so‘zlarni aytishdan saqlash lozim. Shu sababli faqat yaxshi narsalarni gapir yoki jim turishni o‘zingga odat qil”. [Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. N. Ismatova va boshqalar. T. 2021, b-19.]

Darhaqiqat, o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda, ularning o‘z ona tillarini puxta egallashlarini ta’minlashda badiiy adabiyotning, xususan, bolalar adabiyotining ahamiyatini alohida qayd etish kerak.

Zero, bizning bobolarimiz ham dunyo tamaddunida ilm-fan, adabiyot va san’atning eng nodir xazinalariga asos solganlar.

Biz va biz tarbiyalayotgan o‘quvchilar ham ularga munosib voris bo‘lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Diktantlar to’plami. O‘qituvchilar uchun qo’llanma. T-2018. G. Ziyodullayeva. 3-bet.]
2. O‘qish kitobi. M. Umarova va boshqalar. 3 –sinf uchun darslik T-2019. B-8]
3. Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. N. Ismatova va boshqalar. T. 2021, b-19.]